

---

## PENSIYA VA NAFAQALAR MIQDORI OSHIRILADI



Aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'lamini kengaytirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ehtiyojmand oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, ularning daromadlarini izchil oshirib borish maqsadida:

2021 yilning 1 sentyabridan boshlab byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdori 1,1 barobarga oshirildi.

2021 yilning 1 sentyabridan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida:

mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori — oyiga 822 000 so'm;

bazaviy hisoblash miqdori — oyiga 270 000 so'm;

pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori — oyiga 289 000 so'm;

yoshga doir eng kam pensiyalar — oyiga 565 000 so'm;

bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslarga beriladigan nafaqa — oyiga 622 000 so'm;

zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa — oyiga 440 000 so'm;

ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiyalarning eng kam miqdori qo'shimcha to'lovni hisobga olgan holda — oyiga 440 000 so'm;

belgilangan yoshga doir eng kam pensiya miqdoridan 623 000 so'mgacha pensiya oluvchilarning yoshga doir va nogironlik bo'yicha pensiyalari miqdori — oyiga 623 000 so'm;

1941 — 1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek, fashistlar kontslagerlarining voyaga yetmagan sobiq mahbuslari va Leningrad shahri qamal qilingan davrda ishlagan shaxslarning eng kam pensiya miqdori ustamalarni inobatga olgan holda — oyiga 2 750 000 so'm etib belgilandi;

boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi oluvchilarning bir nafar mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi uchun pensiyaning eng kam miqdori — oyiga 440 000 so'm etib belgilansin va keyingi har bir mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi uchun amaldagi tartibga muvofiq pensiya to'lanadi;

boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi oluvchilarning bir nafar mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi uchun nafaqa miqdori — oyiga 440 000 so'm va keyingi har bir mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi uchun 165 000 so'mdan qo'shilishi belgilandi.

### **R.Turdiyev**

**Quva tuman Byudetdan tashqari  
pensiya jamg'armasi raxbari**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Youtube](#)

2021-09-14 17:34:44